



**Tadqiqot** uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**2020**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**№18**  
31 июль

**conferences.uz**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 18-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
1 - ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
18-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ- 1**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
18-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART- 1**

**ТОШКЕНТ-2020**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 18-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июль 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 33 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

<b>1. Дусмуродов Обиджон Шомирзаевич</b> ХАММУРАПИ ҚОНУНЛАРИДА ҲАРБИЙЛАР МАЖБУРИЯТЛАРИ ВА ИМТИЁЗЛАРИНИНГ АКС ЭТИШИ.....	7
<b>2. Рапаева Dilorom Odambojevna</b> ТА’ЛИМ СОҲАСИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР.....	10
<b>3. Якубова Дилбаҳор Шариповна</b> ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА МЕДИАЦИЯ (ГЕРМАНИЯ АМАЛИЁТИ).....	12
<b>4. Nuriddinova N.S</b> KORONAVIRUS PANDEMIYASIDAN KEYINGI DUNYO .....	14
<b>5. Машарипова Инобат Ўктамовна</b> ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИНГ МЕҲНАТГА БЎЛГАН ҲУҚУҚЛАРИ.....	16
<b>6. Sultonova Gulnora</b> FITRAT VA TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI .....	19
<b>7. Бердимуратова Гулназ Мурат кызы</b> КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СУДЕБНОЙ ВЛАСТИ НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН .....	21
<b>8. Urmanov Abdulaziz To‘lamirzayevich</b> MILLIY G’URUR VA MILLIY OR – NOMUS.....	24
<b>9. Yusupova Umida Amatbayevna</b> MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING TARIXIY ILDIZLARI .....	26
<b>10. Soliyeva Kamola Abdumalikovna</b> TEMURIYLAR DAVRIDA TIL VA ADABIYOT MASALALARI .....	28
<b>11. Матчанова М.А</b> КЛАССИФИКАЦИЯ ПРАВ МОЛОДЕЖИ В ЮРИДИЧЕСКОЙ НАУКЕ.....	30



## ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

### ХАММУРАПИ ҚОНУНЛАРИДА ҲАРБИЙЛАР МАЖБУРИЯТЛАРИ ВА ИМТИЁЗЛАРИНИНГ АКС ЭТИШИ.

*Дусмуродов Обиджон Шомирзаевич*  
*Тошкент архитектура – қурилиш институти ўқитувчиси*  
*Телефон: +998(90)350-52-66*  
*E-mail: dosh\_1986@mail.uz*

**АННОТАЦИЯ:** Бугунги кунда дунёдаги барча давлатлар фуқароларининг тинчлигини, осойишталигини, чегаралари сарҳадларини дахлсизлигини таъминловчи ҳарбийларнинг ижтимоий ҳимоясини амалга оширишни, уларга имтиёзлар яратишни ўзининг долзарб вазифаларидан деб ҳисоблайди. Ушбу мақолада қарийб тўрт минг йил аввал қадимги Бобил подшолигидан, бизгача етиб келган энг қадимги қонун “Хамураппи қонунлари”да ҳарбийларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисидаги моддалар ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Бобил, Хамураппи, қонун, миҳхатсимон ёзув, жангчи, аскар, редум, ба-ирум, тамкар, кумуш.

Қадимги Икки дарё оралиғида (юнон тилида Месопотамия, замонавий Ироқ ҳудудлари) давлатчилиқнинг шаклланиши эр. авв. III минг йилликка оид. Тигр ва Евфрат дарёларининг жанубий қисмида яъни жанубий Месопотамияда бир нечта шаҳар – давлатлар (Бобил, Киш, Ур, Урук, Ларса) мавжуд бўлиб улар ўртасида доим гегемонлик учун шафқатсиз курашлар бўлган. Эр. авв. XIX асрда ана шундай курашларда Евфрат дарёсининг чап қирғоғида жойлашган Бобил шаҳар – давлати ғолиб чиқади. Бобил савдо йўллари бирлашган жуда қулай географик ҳудудда жойлашган эди. Бу қулайликдан Бобил подшолари жуда моҳирлик билан фойдаланиб Месопотамияни ўз қўллари остида бирлаштирадилар. Шу тариқа биз Урнинг III сулоласининг қулаши ва Месопотамия қасситлар томонидан босиб олинганга қадар бўлган даврни (эр. авв. XX-XVII асрлар) шартли равишда Қадимги Бобил подшолиги даври деб атаёмиз[1]. Аниқроқ айтганда, Қадимги Бобил подшолиги эр. авв. 1894–1595 йилларни ўз ичига олади. Бирлаштириш жараёни узок жангу – жадаллар билан кечган ва бу жараён эр. авв. XVIII аср ўрталарида подшо Хаммурапи (эр. авв. 1792–1750 й.й.) даврида ниҳоясига етади[2].

Аморий қабиласидан бўлган Хаммурапи даврида Бобил давлати равнақ топди. Моҳир сиёсатчи ва саркарда Хаммурапи ҳарбий куч ва дипломатик йўл билан ҳукмронлигининг 35-йилида жанубий ва Марказий Месопотамиянинг катта қисмини ўз қўл остида бирлаштиради [3].

Хаммурапи қонунлари 1901–1902 йилларда Сузада (қадимги Элам пойтахти) қазиш ишлари олиб бораётган Ж. де Морган раҳбарлигидаги француз археологик экспедицияси томонидан топилган[4] ва у бугунги кунда Париждаги Лувр музейида сақланмоқда.

Қонунлар қора базальт тошга устунга ўйиб ёзилган. Маълум бўлишича улар ҳарбий ўлжа сифатида эламликлар томонидан Сузага олиб келинган. Тош устуннинг тепа қисмида Хаммурапи ва унга қонунларни топшираётган куёш ва адолатпарварлик худоси Шамаш тасвирланган. Устуннинг қолган жойларига миҳхат ёзувида ёзилган қонун матнлари битилган.

Қонунлар тўплами уч қисмдан: кириш, асосий қонунлар ва хулосадан иборат. Дастлаб, қонунлар 282 моддадан иборат деб ҳисобланганди, аммо Сузадан топилган устундан бизгача 247 та модда етиб келган. Қолган 35 та модда ўчириб ташланган. Кейинчалик етарли бўлмаган моддалар Суза ва бошқа жойлардан хусусан, машҳур Ашшурбанапал ку-



тубхонасидан топилган сопол тахтачалардаги нусхалар асосида қайта тикланган. Қонунлар аккад диалектидаги классик бобил тилида миҳхатсимон ёзув билан ёзилган. [5]. Мазкур қонунлар қадимги Бобил давлатидаги жамиятнинг ижтимоий иқтисодий ҳаёти ва подшо Хаммурапининг давлатчилик тизими, ички ва ташқи сиёсати тарихини акс эттирувчи муҳим манба ҳисобланади.

Хаммурапи ўз қонунларида подшо давлатининг асосий таянчи бўлган жангчиларга алоҳида аҳамият қаратади.

Хаммурапи қонунларининг 26-41 моддаларида жангчилар мажбуриятлари ҳамда имтиёзлари ҳақида қоидалар бериб ўтилган. Қонунларда жангчилар редум ва баирум деб номланган [6]. Улар ўртасидаги фарқ ҳозиргача маълум эмас. Афтидан улар енгил ва оғир қуролланган пиёдалар ёки камончи ва найзачилар бўлиши мумкин.

Хаммурапи ўз даврида пухта тайёргарликка эга моҳир жангчилардан иборат мунтазам қўшинга эга бўлган ва бу жангчилар буткул подшо таъминотида эди. Жангчилар подшо қўшинидаги хизмати эвазига ундан ер олишган. Подшо хизматчилари ва ўрта тоифадаги хунармандлар 9-12 гектар ер олишган бўлса, жангчилар одатда 12 гектар ер олган. Жангчининг хизмат муддати “абдий” ҳисобланган. Хўжалик ишлари жангчини буткул вақтини олиб хизматдан чалғитмаслиги учун ўзига бошқа бирор шахсни шерикликка олиши мумкин эди. Одатда у шерик ҳам жангчи бўлиб, паст унвони жиҳатидан ва хизмат муддатини кам ўтаганлигидан фарқланган. Улар навбат билан хўжалик ишларида ва кундалик ҳарбий мажбуриятларда иштирок этишган. Бирок, Хаммурапи қонунларидаги 26-моддага кўра редум ёки баирумнинг подшо юриши вақтида уришга бормаслиги, ёки бошқа бировни ёллаб ўрнига жўнатиши ўлим билан жазоланган ва унинг уйи ёлланган шахсга берилган. Хаммурапи қонунининг 33-34 моддасига кўра ҳарбий бошлиқ ўз қўл остидаги жангчини ёки унинг оила аъзоларидан ҳарбий хизматдан бошқа мақсадларда фойдаланса ўлим жазосига ҳукм қилинган. Шу тариқа Хаммурапи қўшинидаги саркардалар ва оддий жангчилар ўртасидаги келишмовчиликларни олдини олган. Бу ўз навбатида жангчини ҳарбий бошлиқлар томонидан шафқатсиз эксплуатация қилиниши олдини олган ва қўшинни доим жанговар ҳолатда ушлаб туришга ёрдам берган.

35-38 моддаларда жангчи ўзига берилган ер майдонини сотиши, алмаштириши, совға қилиши, васият қилиши ва қарз эвазига бериши қонунан қаттиқ таъқиқланган [7]. Акс ҳолда жангчи “ўз қумушини йўқотган” яъни жарима солинган.

Шунингдек Хаммурапи қонунларида урушда бўлган жангчиларнинг ер мулклари дахлсизлиги давлат томонидан ҳимоя қилинган.

27- моддага кўра эса асирдан қайтиб келган жангчига унинг ери дарҳол қайтарилган, фақат у яна ҳарбий хизматни давом эттирган.

28-29 ва 31 моддаларга кўра агар жангчи урушда ҳалок бўлса, унинг ери – мулки вояга етган ўғлига берилиши керак, агар унинг ўғли вояга етмаган бўлса, у ҳолда боланинг тарбияси учун ернинг бир қисми онасига берилган. Агар жангчи ҳарбий хизматдан қутилиши учун ерни ташлаб кетса унга қайтиши учун бир йилдан ортиқ бўлмаган муддат беришган, бу вақт ичида унинг ери ҳарбий хизматга қайтиш шарти билан сақланган [8].

Хаммурапи қонунлари ичида 32 модда алоҳида эътиборга молик. Унга кўра асирга олинган редум ёки баирум тамкар (савдогар) томонидан хориж мамлакатларидан сотиб олиб келинса, у ҳолда жангчи тамкарга ўзи товон тўлаши керак. Агарда унда товон тўлаш имконияти йўқ бўлса, у ҳолда жангчи яшайдиган маҳаллий ибодатхона товон тўлаши керак агарда ибодатхонани ҳам товон тўлашга қурби етмаса, у вазиятда подшо саройи бу товонни тўлаши лозим бўлган. Лекин зинҳор товонни тўлаш учун жангчининг ери, мулки берилмаган [9].

Шу ўринда савол туғилади, хориждаги асир жангчини тамкар нега сотиб олиши керак? Бу ўринда шуни алоҳида таъкидлаш жоизки Хаммурапи даврида савдо – сотиқ тизими давлатга буйсундирилган эди ҳамда савдогарлар давлат хизматчиси ҳисобланар эди. Шунингдек Хаммурапи даврида маҳаллий ибодатхоналар ҳам давлат хўжалигига буйсундирилган эди. Шунинг учун тамкарлар ҳам маҳаллий ибодатхоналар ва подшо саройи ҳам давлатнинг асосий таянчи бўлган жангчиларни мамлакатга қайтариши лозим эди [10]. Шу йўл билан Хаммурапи давлати ўз фуқораларини хориж мамлакатлардан сотиб олиб келиш товон пўлини ўзи тўлаган.





Юқорилардан келиб чиқиб шуни айтишимиз мумкинки қадимги Бобилда ҳарбийлар ҳуқуқлари қонунан ҳимоя қилинган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар.

1. Козырева Н.В. Старовавилонский период истории Месопотамии. – История древнего мира. Кн. I. Ранняя древность. Под. ред. И.М. Дьяконова, В.Д. Нероновой, И.С. Свенцицкой. М., 1989. – С. 86.
2. Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1975. – С. 78-79.
3. Заблоцка Ю. История Ближнего Востока в древности. М., 1989. – С.219.
4. Тематическая Хрестоматия по Истории Древнего Мира. М., 1963. – С. 8
5. Хрестоматия по Истории Древнего Востока. Ч. I. Под. ред. М.А. Коростовцева, И.С. Кацнелсона, В.И. Кузицина. М., 1980. – С.151.
6. Кленгель – Брандт Э. Путешествие в древней Вавилон. – М., 1979. – С. 124-159.
7. Дьяконов И.М. Законы Вавилонии, Ассирии и Хеттского царства // Вестник древней истории. М., 1952, № 3 – С. – 276.
8. Хрестоматия по Истории Древнего Востока. Под. ред. В.В. Струве и Д.Г. Редера М., 1963. – С.200.
9. Хрестоматия по Истории Древнего Востока. Под. ред. В.В. Струве и Д.Г. Редера М., 1963. – С.200-201.
10. История древнего Востока. Зарождение древнейших классовых обществ и первые очаги рабовладельческой цивилизации. Ч. I. Месопотамия. Под. ред. И.М. Дьяконова. М., 1983. – С. 377.



## ТА'ЛИМ SOHASIDAGI ISLOHOTLAR.

*Panayeva Dilorom Odamboevna.*  
*Xorazm viloyati Yangiariq tumani 36-son maktab*  
*rus tili fani o'qituvchisi*  
*Telefon: +(99) 058 80 21*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim taraqqiyoti uchun islohotlarning o'rni, ta'lim-tarbiya berishda, shaxs shakllanishidagi yoshlarimizning qalbida ona yurtga sadoqat, va fidoylik tuyg'ularini shakllantirish xususida mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy ta'sir, bolaning iste'dodi, intellektual salohiyati, ijtimoiy tarbiya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatidan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoylik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2017-yil 7-fevralidagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, ya'ni ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Asosan ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Keyingi bir yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yaqin qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu esa ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Maktablar oldiga qo'yilayotgan talablardan biri –yuqori malakali, sohasining bilimdoni bo'lgan o'qituvchi–pedagoglar bazasini shakllantirish bilan birgalikda, maktabda chet tilini ham o'qitishdir. Bundan tashqari, Davlatimiz rahbari oliy ta'lim muassasalarining bakalavr yo'nalishidagi bo'ladigan test sinovlarini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish, bunda rivojlangan xorijiy davlatlarda sinovdan o'tgan eng ilg'or tajribalarni tatbiq etish, test sinovlarini shaffofligini ta'minlash yuzasidan ham ko'rsatmalar berilmoqda. 2018-yil davomida xalq ta'limi sohasidagi katta ko'lamdagi ishlar amalga oshirilgan bo'lsa, sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar esa bir talay. Hozirgi kunimizda ishlar asosan muammolarni aniqlash va ularga yechim topish ustida ish olib borilayotir. 2019-yildagi eng ustuvor yo'nalishlar vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 5763-farmoniga binoan oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida bo'lib, ilm-fanni rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakli va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xalq ta'limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarining joriy qilish, o'sib borayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishning sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Shuningdek ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta'limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjuddir. O'quv –tarbiya jarayoniga boshqaruvning yangi mexanizmlarini va sifat standartlarini joriy etish, o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, umumta'lim muassasalarining moddiy –texnik holatini yaxshilash orqali xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirilmoqda. Jumladan, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning ma'naviy –axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 997-sonli qarori ham



Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlariga qaratilgan. Asosan Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarni ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida ish olib borilmoqda. Ta'lim tizimida o'qish ,matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning yangi metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda .Ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ,xalqaro ilmiy anjumanlarni tashkil qilish va o'tkazishda ishtirok qilishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Pedagogika tarixi va g'oyalari "(O'quv uslubiy qo'llanma). Samarqand- 2014 yil.
2. "Ta'lim va tarbiyaga texnologik yondashuvning pedagogik asoslari". O.Ismoilov, SH.Q.Nazarov. Toshkent- 2012 yil
3. "Bola taraqqiyotining psixologik tashxis qilish". R.I. Sunnatova , G.Irgasheva, S.X.Tadjiyeva. Toshkent- 2008 yil



## ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА МЕДИАЦИЯ (ГЕРМАНИЯ АМАЛИЁТИ)

*Якубова Дилбаҳор Шариповна*  
*“Оила” илмий-амалий тадқиқот Маркази эксперти,*  
*юридик фанлар номзоди*  
*Телефон: +998(90) 971 40 60*  
*dilbakhor.y@mail.ru*

**Анотация:** мазкур тезислар низоларни ҳал қилишнинг муқобил усуллари медиацияни Германияда ривожланиш тарихи, унинг ҳуқуқий асослари, медиаторларга қўйилган талаблар ва амалиётга бағишланган.

**Калит сўзлар:** медиация, медиация тарихи, медиацияни ривожланиши, медиаторларга талаблар.

Германия Европада биринчи бўлиб низоларни ҳал қилишда медиацияни тадбиқ эта бошлаган. Шундай қилиб 80-йилларда низоларни ҳал қилишнинг муқобил усули сифатида медиация шаклланиб, ривожлана бошлади. Медиация институтини тадбиқ этиш чораларидан бири сифатида авваламбор аҳолига, айнан уларнинг ҳаётида вужудга келадиган оилавий, меҳнат, қўшнилар ўртасидаги, бизнес билан боғлиқ ва бошқа низоларни ҳал қилишда медиация имкониятлари тўғрисида тушунтириш ишларидан бошланган. Бунинг натижасида, иқтисодий муносабатлар соҳасидаги низоларни ҳал қилишда медиациядан фойдаланиш долзарб бўлиб қолди. Кейинчалик эса, аста-секинлик билан медиация билан шуғулланидиган марказлар ва ташкилотлар яратила бошланди.

Германияда медиация институти 2012 йил июлда кучга кирган “Медиацияни ва низоларни суддан ташқари ҳал қилишнинг бошқа усуллари қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги қонун билан тартибга солинди. Мазкур қонун кучга киргунга қадар, медиация фаол равишда судларда қўлланилиб, судьялар амалиётда медиациядан фойдалана бошладилар ва бу жараён бепул ўтказилганлиги сабабали ўз самарасини бера бошлаган. Қонун лойиҳаси муҳокама қилингунга қадар, медиацияни Германиянинг аксарият ҳудудларида судлар амалиётида қўллаб келинган. Лекин хусусий медиаторларнинг фикрича бундай амалиёт медиацияни суддан ташқари жараёнда қўлланилишига тўсқинлик қила бошлаган. Суддан ташқари медиация жамият томонидан талабга эга эмаслиги сабабли, хусусий медиаторларнинг ҳамжамияти бир неча бор мавжуд амалиётни тақиқлашни талаб қилиб, бу борада судьялар ҳамжамиятини танқид қилишган. Бунда судьялар томонидан бир йўғилишда кўпи билан икки соат ўтказиладиган жараёни медиация деб ҳисобланмаслиги, чунки бундай қисқа вақт ичида қабул қилинган қелишувлар ҳар доим ҳам иккала томоннинг манфаатларига жавоб бера олмайди деган хулосага келишган. Шу сабабли хусусий медиаторлар ва адвокатлар судьялар томонидан медиацияни олиб борилишини тақиқлаш ва уни қонун билан тартибга солиш лозимлиги ҳақидаги таклиф билан чиқишган [1].

Қонун қабул қилинганидан кейин медиацияни қўллаш тартиблари ҳам ўзгарди. Ўзгартиришларга кўра, суд жараёнида медиациядан мажбурий фойдаланиш ман этилди, судьялар медиация масаласида фақат таклиф беришлари ва агар тарафлар медиация орқали қелишувга эришсалар, суд ишни кўришни тугатиши белгилаб қўйилди. Шунингдек, суд жараёнида эришилган ижобий натижани “медиация” эмас, балки “қелишув битими” деб номлана бошланди.

Қабул қилинган қонун билан медиаторларга нисбатан алоҳида талаблар қўйилмади. Унда фақат медиатор тегишли билимга ва медиация жараёнини ўтказиш кўникмаларига эга бўлиши белгиланиб, бунда ҳуқуқшунослик, конфликтология, коммуникацияга киришиш, медиация босқичларига доир билимларга эга бўлиши назарда тутилган.

Шундай қилиб қонунга асосан муомала лаёқатига эга бўлган ҳар қандай жисмоний шахс медиатор бўлиши мумкинлиги белгиланди. Уларга нисбатан алоҳида мутахассислик бўйича маълумотга ва сертификатга эга бўлиши, судланмаганлик ҳолатлари юзасидан алоҳида талаблар қўйилмаган. Лекин шундай бўлсада, сертификат олиш учун медиаторлар таянч курсларда ўқишлари лозимлиги белгиб қўйилган. Медиаторларни ўқитиш ва уларга сертификатлар бериш юзасидан фаолият олиб борадиган ташкилотларга ҳам алоҳида



конун билан ҳеч қандай чекловлар ўрнатилмаган. Улар ўз фаолиятларини эркин олиб бориш ҳуқуқига эгалар.

Германия, Европа Иттифоқида иштирок этувчи давлат сифатида ҳудудида нафақат ўз қонунчилигини, балки Европа қонунчилигини ҳам қўллаши лозим. Жумладан, медиация институтини тартибга солувчи “Медиацияни ва низоларни суддан ташқари ҳал қилишнинг бошқа усуллари қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги Германия қонунидан ташқари, Европа Иттифоқи ва Европа Иттифоқининг 2008 йил 21 майдаги “Фуқаролик ва тижорат ишларида медиациянинг айрим жиҳатлари тўғрисида”ги 2008/52 / ЕІ Директиваси ҳам медиацияни қўллашда ҳуқуқий асос бўлиб ҳисобланади. Айниқса “Медиаторлар учун Европа ахлоқ Кодекси” медиаторлар фаолиятига ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Германияда медиация институти шаклланиб келаётганлигига етарли вақт ўтганлигига қарамасдан, ҳали ҳануз медиацияни аҳолига етказиш масаласи долзарб ҳисобланиб, бунинг асосий сабаби сифатида тарғибот ишларини кучайтириш масалаларига эътибор қаратилмоқда.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Германия. Федеральный институт медиации // <http://fedim.ru/mediatsiya-v-mire/evropa/germaniya/>



## KORONAVIRUS PANDEMIYASIDAN KEYINGI DUNYO

*Nuriddinova N.S., Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti,  
I Pediatriya fakulteti 308-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbari : Yakubova K.N. Fakultet pediatriya kafedrasasi assistenti.  
Elektron pochta: nozigulnuriddinova@gmail.com Tel:90 612 06 21*

**Annotatsiya:** Koronavirus bugungi kunda pandemiya sabab bo'lib, barchamizni vahimaga solib qo'yish bilan birga, uyda o'tirishimizga ham sababchi bo'ldi. Koronavirus bilan kasallanish birinchi Xitoyda kuzatilib, keyinchalik AQSH, Italiya, Ispaniyada yuqori ko'rsatkichlarni zabt etdi, hamda virus bizni ham chetlab o'tmadi. Bu virus bemorlarda oddiy shamollashdan to o'tkir og'ir respirator sindrom (TORS) deb nomlanuvchi og'ir kechuvchi kasallikni keltirib chiqaradi. Hozirda dunyo bo'ylab koronavirus bilan kasallanganlar soni 4,5 mln.dan oshgan bo'lib, vafot etganlar soni 303 mingdan ziyod (15.05.2020 yil).

**Kalit so'zlar:** koronavirus, pandemiya, gilvata, pnevmoniya, terapiya, verifikatsiya, masofaviy ta'lim, yalpi ichki mahsulot.

Koronavirus – viruslar oilasiga mansub “Atipik zotiljam” (SARS) kasalligini chaqiruvchisiga o'xshab ketuvchi virus bo'lib, tashqi muhit ta'siriga va zararsizlantiruvchi vositalarga nisbatan chidamli. Ilk marotaba 2019-yilning dekabrda Xitoyning Uxan shahrida qayd etilgan. 2020-yilning 11-martida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan pandemiya deb belgilandi [4]. 2020-yilning 21-apreliga qadar virusni 180 dan oshiq mamlakat va 200 dan oshiq hududda yashovchi 2.47 milliondan oshiq odam yuqtirdi; 170 000 dan oshiq odam kasallik tufayli halok bo'ldi, 651 000 dan oshiq odam esa tuzaldi. Xitoy, Yevropa, Eron, Janubiy Koreya va AQShda pandemiya o'choqlari yuzaga keldi [1,3]. Ushbu kasallik bir necha asrlar oldin ham dunyo bo'ylab tarqalgan va ko'plab insonlar o'zlariga kasallikni yuqtirib olib, uning oldini olish choralarini izlashgan, oddiy gilvata bilan qo'lni yuvish, oddiy sirka suyuqligini suvga aralashtirib ichish, imbirdan tayyorlangan mahsulotlarni yeyish, sabzavotlardan foydalanishni o'rganishgan. Niqobdan ham foydalanishgan. Boshlariga ro'mol yoki maxsus yopinchiqlar kiyishgan [2].

Kasallik bilan xastalangan odamlardan havo-tomchi hamda maishiy muloqot yo'li bilan yuqadi [5,7]. Virus bemorda kasallik alomatlari yuzaga kelganda yuqumlilik yuqori bo'lsa-da, kasallik belgilari paydo bo'lishidan oldin ham boshqalarga yuqishi mumkin [7]. Kasallik alomatlari odatda besh kunda paydo bo'ladi, ammo bu davr 2 kundan 14 kungacha davom etishi mumkin. Kasallikning asosiy alomatlari isitma, yo'tal va nafas qisishidir [6,8]. Kasallik bemorda pnevmoniya hamda o'tkir nafas olish distress-sindromini keltirib chiqarishi mumkin. Mutaxassislarning xulosasiga ko'ra, koronavirus keltirib chiqargan kasallikning gripp kasalligidan farqi shundaki, ushbu kasallik asoratlar bilan o'tishi va o'lim bilan tugashi ehtimoli yuqori, chunki hozirgi kunda ushbu virusga qarshi odamlarda himoya qobiliyati (immuniteti) rivojlanmagan. Ayni damda COVID-19ga qarshi vaksina yoki preparat yo'q. Kasallik tarqalishi oldini olish uchun qo'llarni yuvish, yo'talganda og'izni to'sish, boshqalardan (ayniqsa, o'zini yaxshi his qilmayotganlardan) uzoqroq masofada bo'lish tavsiya qilinadi. Virusni yuqtirganini taxmin qilayotgan shaxslar 14 kun davomida o'zlarini izolyatsiya qilishi lozim. Hozircha ushbu kasallikni davolash uchun maxsus dori vositalari yo'qligi sababli, boshqa viruslarga qarshi qo'llaniladigan vositalardan foydalanilmoqda.

Kun o'tgan sayin koronavirus mavzusi dolzarbligi turmush tarzimizdagi holatlarda, oila salomatligini va hamjihatligini saqlashda, ijtimoiy barqarorligimizda, tabiatga salbiy ta'sirlarni kamaytirish bilan birgalikda, ko'p ish faoliyatlari, barcha o'quv dargohlaridagi jarayonlar to'xtashi va hatto avtotransportlarda yo'lda harakatlanish ma'lum muddat cheklanganligida ko'zga tashlanmoqda. Bu jarayonni qisqacha “KARANTIN” davri deb ta'kidlashimiz ham o'rinli. Bu tadbirlar, albatta, bejizga emas. Barchasi hukumatimizning xalqimiz sog'ligi uchun qayg'urayotganligidan dalolat berib turibdi. Demak, koronavirus tarqalishining oldini olish uchun olib borilayotgan chora-tadbirlar ushbu epidemiologik vaziyatdan tezroq chiqish maqsadida tashkil etilmoqda.

“Koronavirus bizga faqat ziyon keltirdi”,-degan fikrdan yiroqman. To'g'ri, u jahon iqtisodiyotining 4 yillik o'sishini yo'qqa chiqardi. 2020-yil aprel oyidagi jahon iqtisodiyoti 3 foizgacha qulashi haqidagi prognozidan so'ng, jahon Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 3,2



foizga pasayishini prognoz qilmoqda. 2020-yilda 34,3 million kishi qashshoqlik yoqasida qolishi mumkin, ularning 56 foizi Afrika davlatlaridadir. 2030-yilga kelib esa yana 130 million kishi pandemiyaning iqtisodiy oqibatlarini tufayli qashshoqlikka duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, u dunyo aholisining keskin ravishda kamayishiga sabab bo'ldi.

Pavel Durov koronavirus tarqalishini butun insoniyat uchun tahdid,- deb atadi. "Pandemiya tugaganda dunyo normal holatga qaytmaydi. Yaqin vaqtlarda paydo bo'ladigan yangi dunyo biz ortda qoldirayotgandan yaxshiroq bo'lishi o'zimizga bog'liq", — degan u. Messenger asoschisi Telegram shu oyda 17 ta davlat Sog'liqni saqlash vazirliklarining kanallariga verifikatsiya (rasmiy belgi) berib, rivojlantira boshlaganini ma'lum qildi. Ular orasida O'zbekistonda koronavirus haqida rasmiy ma'lumot beruvchi Koronavirus Info kanali ham bor. Ta'lim olishni osonlashtiruvchi loyihani taqdim etishini ma'lum qildi. Durov tez orada loyiha haqida qo'shimcha ma'lumot berishni va'da qildi. Kuzatuv texnologiyalari shunchalik tez rivojlanayotgani, bundan 10 yil oldingi ilmiy fantastika deb bilgan narsalarimiz bugungi kunda odatiy hol bo'lib qoldi. 24 soat tana harorati va yurak urishini o'lchaydigan biometrik bilaguzuk kiyishni talab qiladigan faraziy hukumatni tasavvur qilib ko'ramiz. Kun davomida yig'ilgan ma'lumotlar hukumat algoritmlari tomonidan to'planadi va tahlil qilinadi. Algoritm siz kasal ekanligingizni o'zingizdan oldin bilib oladi va qayerda kim bilan bo'lganingizni ham biladi. Infektsion zanjirni shu tariqa uzib tashlash yoki kamaytirish mumkin. Bu tizim, ehtimol, bunday epidemiyalarni bir necha kunlar ichida to'xtatib berar. Yuval Nao Xarari fikriga ko'ra: Bizning hozirgi eng katta yutuqlarimizdan biri masofaviy talim (MT) - bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar - elektron pochta, Internet, video konferensiya, audio, video ma'lumotlar va multimedia o'quv qo'llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o'qitish, o'rgatish usulidir. Masofaviy talimda talabdan doimiy faoliyat – interaktiv o'qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini sifat xarakteristikasini oshiradi. Moodle tizimi bu biz uchun yangilanib borayotgan ta'lim demak. Hatto bog'cha ham onlayn ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi ekanligi quvonarli.

Ushbu global inqiroz insonlar qanchalik bir-birlariga bog'liqligini va davlatlar o'rtasidagi urush faqat halokatga olib kelishini isbotladi. Endi xalqaro munosabatlarda hamkorlikni kuchaytirish ilmiy tajribalarni hurmat qilish va qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirilgan ko'p tomonlama munosabat bildirish, ilmiy rivojlanish birligini taminlash orqali amalga oshadi. Shu tariqa o'z-o'zini tiklab olishga imkon yaratiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, nafaqat koronavirus, balki barcha yuqumli kasalliklarning oldini olishning eng samarali usuli, bu shaxsiy va jamoat gigienasi qoidalariga qat'iy amal qilish, aholi o'rtasida, shu jumladan harbiylarimiz o'rtasida sanitariya targ'ibot ishlarini tashkil etishdan iboratdir.

Yuqumli kasalliklarning oldini olish, nafaqat tibbiyot xodimlarining vazifasi, balki o'zini, oila-a'zolarini, Vatanimizning ertangi kelajagi bo'lmish farzandlarimizning sog'ligi uchun qayg'urgan barcha fuqarolarimizning sharafli burchidir.

Foydaniilgan adabiyotlar:

1. Kun.uz sayti statistika ma'lumotlari.
2. Nargiza Tillayeva "Koronavirus qadimda ham bo'lganmi?" maqolasi hudud.24.uz. sayti
3. Ravshanbek Begmatov "Karantin tarixini bilasizmi?" maqolasi.
4. Coronavirus disease 2019. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. (15 March 2020).
5. Getting your workplace ready for COVID-19. World Health Organization (27 February 2020). Q&A on coronaviruses. World Health Organization (11 February 2020).
6. Rothan, H. A.; Byrareddy, S. N. (February 2020). "The epidemiology and pathogenesis of coronavirus disease (COVID-19) outbreak". *Journal of Autoimmunity*: 102433. doi:10.1016/j.jaut.2020.102433.
7. Symptoms of Novel Coronavirus (2019-nCoV). US Centers for Disease Control and Prevention (10 February 2020).
8. WHO Director-General's opening remarks at the media briefing on COVID-19 – 11-mart 2020. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (11-mart 2020).



## ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИНГ МЕХНАТГА БЎЛГАН ҲУҚУҚЛАРИ

*Машарипова Инобат Ўктамовна  
Урганч шаҳар 8-сонли мактабнинг  
ҳуқуқ фани ўқитувчиси  
Тел: +998995578660.*

**Аннотация.** Мақоладан мақсад вояга етмаган ёшларни меҳнатга бўлган ҳуқуқларини химоя қилиш ва уларга шароит, имкониятлар яратиш.

**Калит сўзлар.** Меҳнат кодексида вояга етмаганларнинг эркинликлари, қонун бўйича яратилган енгилликларни назорат қилиш. Вояга етмаганларни ҳуқуқларини химоя қилиш. Ижтимоий химояга мухтож оила фарзандларини меҳнатга жалб қилишга кумаклашиш.

Кўпчилик меҳнатга бўлган муносабат фуқароларда вояга етгандан кейин яъни 18 ёшга тўлган фуқароларгагина берилади деб тасаввур қилишади. Аммо меҳнат ҳуқуқи меҳнат фаолияти давомида вужудга келадиган одамлар орасидаги муносабатларни тартибга соладиган ҳуқуқ соҳаси бўлган муносабат **вояга етмаганларда** яъни Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатларига мувофиқ 18 ёшга етмаганларда ҳам мавжуддир.

Ишга қабул қилинаётган ходимдан, ёши ҳақида сўралади, чунки Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексига мувофиқ иш берувчи вояга етмаганларни фақат 15 ёшдан бошлаб ишга қабул қилишга ҳақлидир. Иш берувчи меҳнатга тайёрлаш мақсадида ўқувчиларни 15 ёшдан бошлаб, қонун талабларига мувофиқ ўқишдан бўш вақтларида ишга қабул қилиниши мумкин. Бу эса меҳнат қонун ҳужжатларининг манбалари бўлган Конституция ва Меҳнат кодекси, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, Бола ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, Президент фармонлари, қонунлар ва Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари шулар жумласидандир.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва Меҳнат кодексига кўра барча фуқаролар меҳнат ҳуқуқларига эга бўлиш ва улардан фойдаланишда тенг имкониятларга эгадирлар. Ҳар бир шахснинг меҳнат ҳуқуқларини химоя қилиш кафолатланади, бу химоя меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя қилинишини текширувчи ва назорат қилувчи органлар томонидан амалга оширилади. Барча фуқаролар меҳнат ҳуқуқларига эга бўлиш ва улардан фойдаланишда тенг имкониятларга эгадир. Меҳнат соҳасида ўзини камситилган деб ҳисоблаган шахс камситишни бартараф этиш ҳамда ўзига етказилган моддий ва маънавий зарарни қоплаш тўғрисидаги ариза билан судга мурожат қилган ҳолда ўзининг ҳуқуқларини химоя қилишга эгадирлар.

**18 ёшга тўлмаган** шахслар меҳнатга оид ҳуқуқий муносабатларда катта ёшдаги ходимлар билан тенг ҳуқуқда бўладилар, меҳнатни муҳофаза қилиш, иш вақти, таътиллار ва бошқа меҳнат шартлари соҳасида улар учун меҳнат тўғрисидаги қонунлар ва бошқа норматив ҳужжатларда белгиланган кўшимча имтиёзлардан фойдаланадилар.

Меҳнат ҳуқуқининг хусусияти шундан иборатки, амалда ҳар қандай масала, агар бундай қарор Меҳнат кодекси қоидаларига зид бўлмаса ва ходимнинг аҳволини ёмонлаштирмаса, меҳнат шартномаси ( кантракт) асосида ҳал этиши мумкин.

Ҳар бир шахснинг меҳнат ҳуқуқларини химоя қилиш кафолатланади, бу химоя меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя қилинишини текширувчи ва назорат қилувчи органлар, шунингдек меҳнат низоларини кўрувчи органлар томонидан амалга оширилади. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси 8 -модда.

Ёшларни меҳнатга тайёрлаш учун умумтаълим мактаблари, ўрта махсус, касб ҳунар ўқув юр்தларининг ўқувчиларининг соғлигига ҳамда маънавий ва ахлоқий камол топишига зиён етказмайдиган, таълим олиш жараёнини бузмайдиган енгил ишни ўқишдан бўш вақтда бажариши учун улар 15 ёшга тўлганидан кейин ота-онасидан бирининг ёки ота-онасини ўрнини босувчи шахслардан бирининг ёзма розилиги билан ишга қабул қилишга йўл қўйилиши қонунан белгилаб қўйилган. Аммо бугунги кунга келиб вояга етмаган шахслар ишлайман деб турса ҳам кўпчилик ота-оналар фарзандини ўйнаб кулсин дея аяйди ва меҳнат қилишига йўл бермайди. Фарзанд эса кейинчалик тайёрга ўрганиб бўш вақтларини бекорчи нарсаларга сарфлайди. Шу сабабдан вояга етмаган шахс ўз ихтиёрига кўра меҳнат қилишига имконият яратиб бериш лозим.





**15 ёшдан** ишга қабул қилганда:

Таътил вақтида ёки ўқиш вақтидан бўш бўлганда (ҳафтасига 12 соатдан кўп бўлмаган)

Тўлиқ бўлмаган иш куни шаройида (ҳафтасига 24 соатдан кўп бўлмаган)

Енгил меҳнатни бажариш учун (бир вақтнинг ўзида 4,1 кг дан кўп бўлмаган юкларни ташиш)

**16 ёшдан 18 ёшгача** ишга қабул қилинганда

Тўлиқ бўлмаган иш куни шаройида (ҳафтасига 36 соатдан кўп бўлмаган)

Енгил меҳнатни бажариш учун (бир вақтнинг ўзида 4,1 кг дан кўп бўлмаган юкларни ташиш) шартлиги кўрсатилган бўлишига қарамадан ҳозирги кундаги кўпчилик тадбиркорлар бу қондани афсуски четлаб ўтишяпти. Шу сабабли вояга етмаганларнинг меҳнат фаолиятини мувофиқлаштириш учун аҳолини иш билан таъминлаш бўлимларида алоҳида вояга етмаганларни иш билан таъминлаш бўлимини жорий қилиш ва кам таъминланган, боқувчисини йўқотган, ижтимоий ҳимояга муҳтож оиланинг вояга етмаган фарзандларини оғир бўлмаган меҳнат билан таъминлаши лозим.

**18 ёшга тўлмаган** шахсларни ишга қабул қилишда белгиланган минимал иш жойлари ҳисобидан иш жойларига ишга жойлаштириш тартибда маҳаллий меҳнат органи ва бошқа органлар томонидан юборилган, ўн саккиз ёшга тўлмаган шахсларни иш берувчи ишга қабул қилиши шарт. Белгиланган минимал иш жойлари ҳисобидан ишга қабул қилишни рад этиш тақиқланади ва бундай рад этиш устидан судга шикоят қилиш мумкин.

**18 ёшга тўлмаган** барча шахслар даслабки тиббий кўрикдан ўтгандан кейингина ишга қабул қилинадилар ва кейинчалик улар 18 ёшга тўлгунларига қадар ҳар йили мажбурий тарзда тиббий кўрикдан ўтказилиб турилиши керак.

**18 ёшга тўлмаган** шахсларнинг белгилаб қўйилган нормадан ортиқ оғир юк кўтаришлари ва ташишларига йўл қўйилмайди.

- **16 ёшгача бўлган** вояга етмаганларга аравача ва вагонет ёрдамида юк ташишларига рухсат этилмайди.

- **16 ёшгача бўлган** вояга етмаганларнинг иш вақти фақат юкларни қўлда кўтариш ва ташиш билан боғлиқ ишлардан иборат бўлганда, улар учун юк кўтариш ва ташиш нормасининг чегараси 2 кг дан оғир бўлмаслиги лозим.

- **16 ёшгача бўлган** вояга етмаганлар иш вақтининг учдан бир қисми юкларни қўлда кўтариш ва ташиш билан боғлиқ ишлардан иборат бўлганда, қўлда юк кўтариш ва ташиш нормаларининг чегараси: ўғил болалар учун **6,5 кг**, қиз болалар учун **3,5 кг** дан оғир бўлмаслиги лозим.

- **16 ёшдан 18 ёшгача бўлган** шахсларнинг иш вақти фақат юкларни қўлда кўтариш ва ташиш билан боғлиқ бўлган ишлардан иборат бўлганда, улар учун юк кўтариш ва ташиш нормасининг чегараси **4,1 кг** дан оғир бўлмаслиги, шунингдек улар аравача ва вагонетка ёрдамида юк ташишга жалб этилмаслиги лозим.

Ўқувчиларнинг меҳнат тарбияси, уларни аста секин меҳнатга жалб этиш мақсадида вояга етмаганларни ишга жойлаштиришга ва юқоридаги меҳнатни оғир бўлмаган турларини аҳолини бандлигини таъминлаш бошқармалари томонидан мунтазам равишда назорат қилиниб борилишини қонун доирасида кўриб чиқиш лозим.

Якка меҳнат низолари кўриб чиқиш тартиби Меҳнат кодекси билан тартибга солинган ва Фуқаролик протцессуал кодекси билан белгиланиши қонунийлаштирилган албатта. Шунга қўшимча равишда ижтимоий ҳимояга муҳтож, кам таъминланган ва боқувчисини йўқотган оилаларнинг фарзандларини иш билан таъминлаш, уларни меҳнат шароитини назорат қилиб туриш, меҳнатга бўлган ҳуқуқлари поймол бўлган тақдирда иш берувчини жавобгарликка тортиш масаласини кўриб чиқиш лозим.

Меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ходимлар, иш берувчилар, давлат манфаатларини инобатга олган ҳолда, ҳаққоний ва хавфсиз меҳнат шароитларини, ходимнинг меҳнат ҳуқуқларини ва соғлиғини ҳимоя қилинишини таъминлайди деб қайий белгиланган аммо иш берувчи хусусий тадбиркор вояга етганни ҳам, вояга етмаганни ҳам бирдай иш талаб қилади ва соғлиғига жавоб бера олмайди. Масалан ходим иш жойида жароҳат олса, иш берувчи даволатмайди хатто вояга етмаган бўлса ҳам. Чунки ходим бундай ҳуқуқи борлигини билмайди.

Юртимизда ёшларга хусусан баркамол авлодга қаратилган этибор юксак даражада. Юқорида мен биргина вояга етмаганларнинг меҳнатга бўлган ҳуқуқлари ҳақида қисқача



маълумот бердим. Ёшларимизга берилган имкониятларни кўплаб келтириш мумкин.

Зеро ёшларимизга ишониб чексиз имкониятлар ва шаройитлар яратилаётган экан бундай бағри кенг давлатда туғилганимиздан фахрланиб имкониятларни қадрига етишимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Юридик атамалар изохли лугати 2008 йил
2. Мехнат кодекси 2008 йил Адлия бошкармаси нашриети.
3. Фукаролик кодекси 2019 йил Адлия бошкармаси нашриети.



## FITRAT VA TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

*Sultonova Gulnora*  
*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani*  
*58- maktab o'qituvchisi*  
*+998914133175*  
*sultonova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Jadidlar maslahati bilan bir guruh yoshlar, jumladan, Fitrat Istanbulga o'qishga yuborishi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikni o'z ichiga, avvalo, adabiyot tarixi va nazariyasi, adabiy tanqid va metodologiyasi maqsadlarini qamrab olinishi.

**Kalit so'z:** jadidlar, metodologiya, maxfiy xizmat, singormonizimli shevalar.

Tilimizni butun qoidalarini aniqlab, atamalarini maydonga qo'ymoq uchun yana biroz tirishmagimiz, bir-birimizga ko'mak qilishimiz lozim. Abdurauf Fitrat

Fitrat XX asr o'zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili. U qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyachisi, o'tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jangovar publisist, noshir va jurnalist, talantli davlat va jamoat arbobi edi. O'z tarjimai holida yozishicha, 1884 yilda Buxoroda tug'ildi. Fitrat –Abduraufning taxallusi bolib, "tug'ma iste'dod" ma'nosini beradi. Fors va o'zbek tillarining mukammal bilimdoni bo'lmish Fitrat arab tilini ham chuqur egallagan, shaharda yuz berayotgan ijtimoiy - siyosiy voqealarga, ayniqsa, jadidchilik harakatlariga qiziqib qaradi. O'zining aytishicha, avval, jadidlar harakatiga qarshilik qildi, keyin uning mohiyatini anglab yetgach, bu harakatga qo'shildi, hatto ashaddiy targ'ibotchilaridan biriga aylandi. Jadidlar maslahati bilan bir guruh yoshlar, jumladan, Fitrat Istanbulga o'qishga yuborildi. Fitrat Turkiyada tahsil olish, ma'ruzalar o'qish bilan birga samarali ijod ham qilgan. 1909-yil Istanbulda uning fors tilida yozgan "Munozara", "Sayha" ("Na'ra") she'riy majmuasi, 1912 yil esa "Sayyohi hindi" ("Bayonoti sayyoqi hindi") asarlari nashr etilgan. Keyinchalik Fitratning millatchi, turkparast va islomparast yozuvchi sifatida qoralanishiga sababchi bo'lgan. "Munozara" va "Sayyohi xindi" asarlari yoshlar dunyoqarashining keskin o'zgarishi va ularning jadidlar safiga kelib qo'shilishiga sababchi bo'lgan. Adabiyotshunoslik va tilshunoslikni o'z ichiga, avvalo, adabiyot tarixi va nazariyasi, adabiy tanqid va metodologiyasi maqsadlarini qamrab olar. Ijod maydonidagi hormas jangchi 1-o'zbek professori Abdurauf Fitratning ilmiy faoliyatida 3 davr jamlanganligini ko'ramiz yaratgan asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Agar Fitrat 1909—1916 yillarni tashkil etgan 1-davrda jadid ma'rifatparvari sifatida ijod qilgan bo'lsa, 1917- yil Fevral inqilobidan keyin Moskvaga surgun qilinganiga qadar bo'lgan 2-davrda hurriyat va mustaqillik g'oyalari bilan to'yingan asarlar yozadi (1917—1923). Sovet maxfiy xizmatining doimiy nazorati ostida yashagan. Fitrat ijodining 3-davri (1923—1937)da asosan ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadi. Fitratning tilshunoslik merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi ma'rifatparvarlik harakatida Abdurauf Fitrat, so'zsiz porloq yulduz kabi porlab turadi. U arab, fors, rus, turk tillarini mukammal bilgan holda o'zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o'rnini va bundan keyingi istiqbolini belgilab berishga intiladi. Tilimiz sharq tillarining birinchisi ekanini dalillar bilan isbotlaydi va turkiy adabiyotning ko'pi arab va fors tillarida ijod qilgani sababli adabiyotimizning ikkinchi bo'lib qolganidan afsuslanadi. Abdurauf Fitrat jonkuyar tilshunos sifatida 20-yillar til siyosati qozonida qaynaydi, turkiy tillarni birlashtirish siyosatining oqibatlarini sezgani holda har qaysi turkiy tilning umumiy jihatlari bo'lishi bilan birga xususiy, o'ziga xos jihatlari ko'pligi, shuning uchun har qaysi turkiy mustaqil ravishda rivojlanishi va o'z xalqiga xizmat qilishini angladi. Shuning uchun o'zbek tilining bundan keyingi istiqboli haqida qayg'urdi. Abdurauf Fitrat o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari ochib berish har bir lingvistik hodisaning mohiyatini ifodalay oladigan qat'iy qoidalar yaratish lozimligini ta'kidlaydi. Bu haqida yozadi: "tilimizning iste'dodli boy bir til bo'lg'onini qichqirib so'ylaydik. Bu til (do'qqidir) qo'poldir, buning o'rniga turkchanning adabiy bir shevasini olaylik degan til bilmaslar bilan kurashdik, ularni yengdik. Biroq hanuz tilimizning belgili qoidalarini maydonga qo'ya olmadik". Ta'kidlash kerakki, o'zbek tili ko'p shevaliligidan yangi o'zbek adabiy tili qanday bo'lishi, qaysi shevalarga tayanmog'i lozim degan muammo bu masalalardan edi. Fitrat mazkur muhim masala bo'yicha fikr yuritib shahar shevalarga arab, fors tillari ta'siri kuchli ekani, shuning uchun bu shevalarga emas, balki qishloq shevalariga tayanish lozimligini



bayon qiladi. Bizning shaharlarimiz ko‘plab yillardan beri arab, forsiy adabiyotining hukmi ostida yashaydi. Shuning uchun bizda shahar tili buzulgan. Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlardan ko‘ra olamiz. Shuning uchun el-aymoqlar orasida ularning jon og‘izi bo‘lib turg‘on dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashula-qo‘shiqlarni xalq og‘zidan qanday talaffuz qilinsa, shundayligicha yozib olish, ularni sinchiklab o‘rganish va shu asosda ma‘lum ilmiy xulosaga kelish lozimligini ko‘rsatadi. Fitrat yuqoridagi fikrlari asosida singormonizmli shevalar o‘zbek adabiy tilining tayanch shevalari bo‘lish kerak, degan xulosaga keladi. O‘zbek tilining fonetik tizimi, morfologik tuzilishi haqida fikr yuritilganda ham ana shu bosh tomoyildan kelib chiqiladi. Madaniyatimiz tarixidagi buyuk siymolardan biri bo‘lgan Abdurauf Fitratning ilmiy me‘rosida tilshunoslikka oid salmoqli asarlar o‘rin tutadi. U o‘zbek ilmiy nazariy masalalarga bag‘ishlangan bir qancha asarlar yaratdi, O‘zbek tilining sarfi to‘g‘risida. (Qizil O‘zbekiston 1925.) — O‘zbekcha til soboqlar. (Qizil O‘zbekiston 1926) — Muqaddimatul adab. (—Maorif va o‘qitg‘uvchi 1926, (7-8 son) — Imlo konfrensiyasi munosabati ila. (Maorif va o‘qitg‘uvchi 1928 (3-son)), — O‘zbek tili qoidalari bir tajriba: —Sarf (1-kitob), — Nahv 2-kitob (1925-1930 yillar Samarqand Toshkent) asarlari fikrimiz dalilidir.

Fitrat tojik tilining ayrim masalalari haqida “Sarf tojik zaboni”, “Dar girdi alifboi toza”, “Dar girdi alifboi nav” asarlarini yozdi. U tilshunoslikning ilmiy nazariy masalalari bilan shug‘ilanish bilan birga 1918-19- yillarda Toshkent dorulmuallimida ilmgohda, 1927-29 yillarda Samarqand dorulfunundida o‘zbek tili haqida ma‘ruzalar o‘qildi. XX asr arafasidagi ijtimoiy-siyosiy moddiy va ma‘naviy, madaniy va ruhiy muhit o‘zbek tili taraqqiyotida muayyan iz qoldirdi. O‘zbek tilining lug‘at tarkibida, ayrim grammatik shakllarning qo‘llanishida, imlo va alifbo sohasida muayyan o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davr tilida eski o‘zbek hamda yangi o‘zbek adabiy tili xususiyatlari bilan birga, boshqa tillarning (tatar usmonli turk, rus va b) ham unsurlari tez-tez uchrab turadi. Ana shunday sharoitda o‘zbek adabiy tilining nazariy masalalarni ishlab chiqish, til dolzarb masala ediki, bu sermashaqqat hamda o‘ta ma‘suliyatli vazifani o‘z zimmasiga olgan va o‘sha davr Turkiston ilmiy muhitida, xususan, til siyosatida faol ishtirok etdi. Fitrat tilshunos sifatida imlo qoidalarni ishlab chiqishga, tilimizning leksik va stilistik me‘yorlarini hamda adabiy tilning taraqqiyot yo‘llarini belgilashga va o‘zbek tili punktuatsiyasi, morfologiyasi va sintaksisi qonuniyatlarini aniqlashga katta hissa qo‘shdi. Abdurauf Fitrat birinchilardan bo‘lib o‘zbek tili grammatikasini yaratishga kirishdi. 1925-yilda uning O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf (1-kitob), Nahv (2-kitob) asari bosmadan chiqdi. Bu asar o‘zbek tili grammatikasining barcha masalalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Fitratning ushbu asari 1925-1930 yillar oralig‘ida bir necha marta nashr qilindi. Abdurauf Fitratning Sarf asarida morfologiya haqida bahs yutitiladi. Ma‘lumki, morfologiya tilshunoslikning so‘z turkumlari va kategoriyalarni, so‘zning shakllar tizimini hamda shu shakllarning hosil bo‘lish yo‘llarini o‘rganuvchi bo‘limdir. Kitobda morfologiyadan tashqari, o‘zbek tili fonetikasi haqida ham muhim fikrlar uchraydi; o‘zbek tilidagi unli va undosh tovushlar va ayrim fonetik qonuniyatlar (yo‘g‘onlik ingichkalik, tovush tushish hodisalari) haqida ma‘lumot beradi. Fitrat tilshunoslik merosidagi eng muhim nuqtalardan yana biri uning til taraqqiyotiga oid fikrlaridir. Xulosa shuki, Fitrat butun umri davomida o‘zbek tilining sofligi uchun kurashdi uni boshqa tillarning tazyiqidan himoya qildi. Bu borada u o‘zbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Fitratning tilimiz haqidagi orzu-armonlari Hazrat Navoiyning fikrlari bilan hamohang. Fitrat o‘zbek tilining so‘z boyligi, so‘z yasash imkoniyatlari, grammatik qoidalarning tugalligi jihatidan boshqa tillardan qolishmasligini ko‘p ta‘kidlaydi.

Adabiyotlar:

1. Boltaboyev H. Fitratning ilmiy merosi.- Toshkent: Fan, 1996
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4-jild.- Toshkent, 2009
3. Fitrat A. Nahv . Samarqand – Toshkent, 1930.
4. Fitrat A. Tilimiz. “Ishtirokiyon” 1919.



## КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СУДЕБНОЙ ВЛАСТИ НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

*Бердимуратова Гулназ Мурат кызы  
(PhD) Докторант Каракалпакского  
государственного университета имени Бердаха  
berdimuratovagulnaz91@gmail.com*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются конституционно-правовая основа судебной власти Республики Каракалпакстан. Подчеркивается правовая природа судебной власти в рамках теории разделения властей. На базе проведенного исследования с использованием материалов правоприменительной практики формулируются конституционно-правовые основы судебной власти и системы в Республике Каракалпакстан. Раскрывая данное понятие, выявляются определенные факторы судебно-правовой системы государства, который поддерживает курс на действенную демократизацию государственного управления и надежную защиту прав и интересов человека, который строго осуществляет контроль за соблюдением конституционных норм о независимости судебной власти.

**Ключевые слова:** Конституция, государство, суд, судебная власть, судебная система, правовая природа, правовая система.

Существование судебной власти в качестве самостоятельной ветви власти предусмотрено ст. 10 Конституцией Республики Каракалпакстан. Эта норма, помещенная в гл. 1 Конституции Республики Каракалпакстан, дает основания для общего вывода о том, что наличие судебной власти является одним из неотъемлемых атрибутов конституционного строя.

В конституционно-правовой природе и сущности судебной власти заложено и то, что базой ее решений являются конституция и законы (в расширительном значении данного слова) государства. Если совершено преступление, если стороны приходят в суд со своим спором, все ждут не просто мнения суда, а его решения, основанного на нормах права. Конституция укрепляет авторитет суда не только тем, что он, суд, действует от имени государства, но также и тем, что его решения есть интерпретация закона для конкретной ситуации. Отсюда вытекает и такое требование, как обязательность судебного решения не только для участников соответствующего процесса, но и для иных субъектов права.

Особенностью конституционно-правовой природы судебной власти является и то, что она осуществляется в рамках определенных форм. Судебная власть осуществляется преимущественно на профессиональной основе. Судьи - специальные государственные служащие, получившие необходимое юридическое образование, достигшие определенного возраста и доказавшие свою профессиональную и жизненную подготовленность для данного вида работы.

Раскрывая данное понятие, выявлены следующие факторы. Судебная власть не только самостоятельна, но и независима от других ветвей государственной власти, а также от общественной власти и от местного самоуправления как форм публичной власти граждан. Так же, судебную власть можно определить, как элемент конституционного строя, самостоятельный вид государственной власти, охватывающий специальную систему органов, задача которых — осуществляемое от имени государства правосудие, т. е. оценка различных действий, актов, бездействия на предмет их соответствия закону, отраженная в судебном решении, принимаемом по определенной форме судопроизводства и являющемся общеобязательным.

Судебная власть целенаправленно выполняет задачи защиты законных интересов граждан, организаций, общества и государства, в том числе и в особенности от противоправных действий. Конечно, такие задачи стоят перед всеми субъектами права, но именно для суда они являются предопределяющими в его природе и назначении.

Никто не вправе выполнять функции судебной власти вместо нее, вершить правосудие, какими бы экстренными ни были обстоятельства.

Судебная власть создана для выполнения задач правосудия. Она не может принимать законы, указы, не вправе также выполнять и функции исполнительной власти. Оценивая



юридические акты, судебная власть не исследует причины их зарождения и принятия, это не ее задача, она воспринимает документ таким, каким он представлен суду для оценки. Рассматривая уголовные дела, судебная власть не подменяет органы, которые выполняли близкие задачи - дознание, следствие.

Из сказанного следует еще одно проявление назначения судебной власти - она занимает свое место в системе сдержек и противовесов в отношениях между властями в государстве. При этом надо иметь в виду, что судебная власть многогранна.

Судебная власть - один из видов государственной власти Республики Каракалпакстан. Это самостоятельный вид государственной власти, имеющий строго определенные функции, осуществляемые специально предназначенной для этого системой, и организационно отделенный от других видов государственной власти Республики Каракалпакстан. Разумеется, глубокие исторические перемены, происходящие в Узбекистане, связанные с реформированием самых различных сфер государственно-правовой жизни, находят своё отражение и в Республике Каракалпакстан, входящий в состав Узбекистан.

В результате обретения независимости Республикой Узбекистан и Республикой Каракалпакстан в республиках сформировалась единая система судебной власти. Становление этой системы требует обстоятельного их изучения и анализа. За годы независимости Республики Узбекистан ряд ученых-юристов посвятили свои монографии, диссертации, научные статьи анализу отдельных сторон деятельности органов судебной власти. В частности, в научных трудах З.М.Исламова важные аспекты теории государства, общества и права обобщены во всей научной целостности. В частности, изучается роль судебной власти в государственном управлении, организация судебной системы и ее функционирование, проблемы либерализации судебных реформ в Республике Узбекистан.

Роль государственных органов в функционировании государства, выполнении его функций, о том, что судебная власть является отдельной самостоятельной ветвью системы государственного управления, процедура и функции судов, а также принципы судебной деятельности глубоко проанализированы в научных трудах профессора О.Т.Хусанова[1].

У.Тожионов, Ҳ.Одилқориев, А.Саидов отмечают, что организация и система судебной власти в Республике Узбекистан прописаны в конституционных нормах, и что осуществление правосудия основано на конституционных принципах, конституционный статус судей является основой их независимости[2].

Что же касается Республики Каракалпакстан, то конституционно-правовые основы реформирования судебной власти после обретения республикой государственного суверенитета, фактически остаётся неисследованным. Вместе с тем, имеется лишь несколько научных работ С.Д.Ниетуллаева[3], Г.Ерниязовой[4], где раскрывается характер государственно-правовых отношений между Республикой Узбекистан и Республикой Каракалпакстан, в которых затрагиваются вопросы организации судебной власти и освещаются конституционные основы развития Республики Каракалпакстан.

Существование судебной власти в качестве самостоятельной ветви власти предусмотрено Конституцией Республики Каракалпакстан. Как это отмечено в данной главе, ст. 11 Конституции Республики Каракалпакстан провозглашает, что государственная власть осуществляется на основе разделения на законодательную, исполнительную и судебную; органы законодательной, исполнительной и судебной власти самостоятельны. Данная норма, дает основания для общего вывода о том, что наличие судебной власти является одним из неотъемлемых атрибутов конституционного строя Республики Каракалпакстан.

Исходя из выше сказанного, судебную власть можно определить, как элемент конституционного строя, самостоятельный вид государственной власти Республики Каракалпакстан, охватывающий специальную систему органов, задача которых - осуществляемое от имени государства правосудие, т. е. оценка различных действий, актов, бездействия на предмет их соответствия закону, отраженная в судебном решении, принимаемом по определенной форме судопроизводства и являющемся общеобязательным.



Список используемой литературы:

1. Хусанов О.Т. Ўзбекистон Республикаси давлат органлари. – Т.: Шарқ. 1996. 7,68,69 бетлар. Қонунийлик-ҳуқуқий давлатнинг негизи-ҳуқуқий демократик ислохотлар. Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Саидов А.Х. Правовой путь в третье тысячелетие: концепция судебно-правовой реформы в Узбекистане. Право 2000г.№1. с.9-17.
3. Ниетуллаев С.Д. Совершенствование государственного строительства в Республике Каракалпакстан (опыт и проблемы). Дисс... на соискание ученой степени д.ю.н. Академия Наук Республики Узбекистан. Институт философии и права им. И.М.Муминова.-Т:1993, с.288.
4. Ерняязова Г. Конституционные основы развития Каракалпакстана. Н.: Билим, 1992. с.110.



MILLIY G'URUR VA MILLIY OR – NOMUS

*Urmanov Abdulaziz To'lamirzayevich*  
*Chortoq Tumani 45-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*Huquq va Milliy istiqlol g'oyasi fani o'qituvchisi*  
*Telefon: +998 93 493 99 37*  
*abdulazizurmanov86@gmail.com*

**Annotatsiya:** Quyida berilgan ilmiy ma'qolada milliy g'urur va or-nomus haqida ya'ni - Milliy g'urur - shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan “or”, “andisha”, “nomus”, “vijdon”, “insof”, “g'urur” haqida aytib o'tgan ilmiy tushunchalari haqida qisqacha ma'lumotlar berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Milliy g'urur , “Kamolot”, “or”, “andisha”, “nomus”, “vijdon”, “insof”, “g'urur”,

Milliy g'urur - shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha. Bu tuyg'u quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyat-larini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish. Mustaqillikkacha bo'lgan tushuncha, tasavvur hamda kechinmalarimizdan bugungi ruhimiz, ma'naviyatimiz naqadar katta farq qilishi hammaga ayon. Buni har kim o'ziga o'zi beradigan “Kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik?” degan javobdan, anglab olsa bo'ladi. Yoshlar ma'naviyatini oshirish masalalarining birlamchi yoki ikkilamchi vazifalari yo'q. Ularning barchasi bir yo'la hamda doimiy diqqat-e'tibor markazida turmog'i kerak. Fuqaro erkinligi va yangi ijtimoiy tuzum tomonidan kafolatlansa-da, fuqarolarning jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan mutlaqo erkin xatti-harakatlarning kafolati emas. “Men mutlaqo erkin fuqaroman, mustaqil tafakkurli insonma, bilganimni qilaman” qabilida yashash tarzini o'zgartirish insonning ijtimoiy va milliy mohiyatiga ega aqidadir. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2004-yil 25-maydagi “O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni va 21-iyun kuni Oqsaroyda ushbu Farmonda belgilangan vazifalarni hal etish yo'llariga bag'ishlangan majlisda ta'kidlanganidek, “Yoshlar o'rtasida diniy ekstremizm, aqidaparastlik, giyohvandlik kabi illatlarning oldini olishda, farzandlarimizni bunday balo-qazolardan asrash uchun kurashda, doimo sezgir va ogoh bo'lib yashashda hokimliklar, vazirlik va idoralar, xususan, Oliy va o'rta maxsus, Xalq ta'limi vazirliklari, Din ishlari bo'yicha qo'mita, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, “Oila” markazi, keng jamoatchilik, barchamiz mas'ulimiz”. Shuning uchun yoshlar tarbiyasi va bu tarbiya zaminida ularning ma'naviyatini harakatga keltiruvchi mustaqillik g'oyalari, milliy qadriyat-larni asrab-avaylash va rivojlantirish tuyg'usi, Vatan istiqboli yo'lida halol va pok mehnat qilish singari milliy mafkuraning o'zak tomirlarini singdirish yotadi. Bugun yoshlar mustaqillik tufayli “or”, “andisha”, “nomus”, “vijdon”, “insof”, “g'urur”, kabi tushunchalarning haqiqiy ma'nosini anglab etmoqdalar.

Or - bu nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan, narsadan hijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir. Bundan tashqari, o'z o'rnida hazar qilish yoki bo'lmasa, obro'-e'tibor, faxrlanish ma'nolarini ham bildirishi mumkin.

Andisha - bu oqibatini o'ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza, ehtiyotkorlik hissidir. Andishali odam deganda, oqibatini o'ylab ish qiladigan, yuz-xotirni biladigan, or-nomusli, sharm-hayoli, iboli insonni tushunamiz.

Nomus - bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari kishining o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'ularini, oila va ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslik ma'nosini ham ifodalaydi. Odatda, nomusli odam ma'naviy qadriyatni moddiy boylikka alishishni o'ziga ep ko'rmaydi. Qonun taqiqlay olmagan narsalarni goho nomus taqiqlay oladi, degan naql ham bor halqimizda. Vijdon - bu kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvori uchun oila, jamoat,





jamiyat va Vatan, millat oldida ma'naviy mas'uliyat his etishidir.

Vijdon - kishilarning yashab turgan sharoitiga, olgan ta'lim-tarbiyasiga bog'liq, deb hisoblovchilar ham mavjud. Vijdon ko'p yoki oz bilimlilikka, boy yoki kambag'al bo'lishlikka, oddiylik yoki mashhurlik bilangina bog'liq emas.

Insof - bu adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi va qobiliyati, ishda, kishilarga munosabatda halollik, to'g'rilik, barobarlik, tenglik, sofdillik va haqiqat o'ylikdir. O'zgani o'z o'rniga va shuningdek, o'z o'rniga o'zgani xayolan qo'yib ko'rish ham insofga kiradi.

Shaxs g'ururi - bu faxrdir. Har bir shaxs o'zining yutuqlaridan mamnuniyat hissini tuyadi. Otaona qobil farzandlaridan, ustoz iste'dodli shogirdidan, yozuvchi yaxshi asaridan, bog'bon so'lim bog'idan, millat o'z merosi, iste'dodli farzandlari bilan faxrlanadi va hokazo. Inson o'z kuchiga ishongan va bu bilan faxrlana olgan taqdiridagina biror narsaga erisha oladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki o'z qadr-qimmatini anglash aqlli odamni yanada kamtarin, yanada sabotli qiladi. Kishi uchun o'z qobiliyatidan ortiq darajada g'ururlanishi ham, o'z-o'zini yerga urishi ham yaramaydi. O'z-o'zligicha qola bilgan odamning g'ururi bus-butundir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati:

1. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. –Т.: Ўзбекистон, 1998. – 497 б.
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Milliy\\_g'oya](https://uz.wikipedia.org/wiki/Milliy_g'oya)
3. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-69668-1.html?page=8>
4. <https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/milliy-istiqlol-g-oyasi/milliy-g-oya-va-yoshlar-milliy-g-urur-va-or-nomus-1>



## MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING TARIXIY ILDIZLARI

*Yusupova Umida Amatbayevna  
Toshkent viloyati Chirchiq shahar  
25-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
Milliy istiqlol g'oyasi va Huquq fani o'qituvchisi.  
Telefon: +998 97 724 52 51*

**Annotatsiya:** Quyidagi ushbu ilmiy maqolada milliy istiqlol mafkurasining tarixiy ildizlari – ya'ni unda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ilmiy qarashlari, Amir Temurning sog'lom ma'naviyat mahsuli bo'lgan “Kuch – adolatdadir” degan shiori to'grisida ilmiy yondashishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov, Amir Temur, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, “Kuch – adolatdadir”, “Alpomish”, “Shashmaqom”.

Milliy istiqlol mafkurasining tarixiy ildizlari deganda – xalqimizning moziy sinovlaridan o'tib kelayotgan boy madaniy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, qo'shiqlari, bayram va marosimlaridagi ozodlik, erkinlik uchun kurash ruhi, ota-bobolarimizning mustaqillik yo'lida ko'rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari hamda ularni amalga oshirishda manaviy ruh bergan tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. U asrlar mobaynida yillar sinoviga dosh berib, sayqallanib, takomillashib kelgan. Insonning azizligi unga o'z xatti-harakatlarini o'zi mustaqil idora etishiga imkoniyat beruvchi aql-zakovat ato etilgani bilan bog'likdir. ya'ni, inson o'z aql-idroki yordamida olamni gullatib-yashnatadi. Ammo bu aql-idrokda nafaqat yashnatuvchi, balki vayron etuvchi kuch ham mavjud. Hayotda ezgulik hukmron bo'lishi uchun aql yaxshilikka, adolatga xizmat qilishi zarur. Buning uchun esa u sog'lom ma'naviyat izmida bo'lishi lozim. Shu tufayli otabobolarimiz aql-idrokni yovuzlik qo'liga tutqazmaslikka harakat qilganlar, uni ma'naviyat bilan, iymon e'tiqod, insof va diyonat bilan boshqarishga alohida e'tibor berganlar. Bu tamoyil xalqimiz ruhini, dahosini aks etgaruvchi o'lmas qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, buyuk ajdodimiz, sohibqiron Amir Temurning sog'lom ma'naviyat mahsuli bo'lgan “Kuch – adolatdadir” degan shiori milliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan, mamlakat birligini ta'minlash, markazlashgan davlat barpo etishda, ayniqsa uni odillik bilan boshqarishda ma'naviy-mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bois Temur saltanatida ilm-ma'rifat yuksak qadrlangan, insonning sha'ni, or-nomusi e'zozlangan, inson va uning mol-mulki davlat muhofazasiga olingan, qaroqchilik, o'g'rilikka keskin barham berilgan edi. Sohibqiron bobomizning: “Mening saltanatimning u chetidan bu chetiga, boshida oltin to'ldirilgan laganni yosh bola ko'tarib o'tsa ham, uning mulkiga hech kimsa dahl eta olmaydi” degan so'zlari hayotiy haqiqat edi. Yoki ayollarning og'ir jismoniy ishlardan ozod qilinganiga e'tibor bering. Aytaylik, yordamchisi yo'q biron ayol suv oladigan chelakni darvoza tashqarisiga chiqarib qo'ysa, shu joydan o'tgan mo'min-musulmonlar chelakni olib, unga suv to'ldirib shu joyga qo'yib ketishar edi. Do'konlarga savdogarlar umuman qulf osishmasdi. Bularning hammasi o'sha zamonda hayot iymon va e'tiqod, insof va diyonat talablari bilan boshqarilganini, odamlar ana shu yuksak tuyg'ular bilan yashaganini ko'rsatadi. Demak, milliy istiqlol mafkurasining ma'no-mazmunini belgilaydigan eng muhim omillardan biri – bu xalqimizning qadimiy va boy tarixidir. Chunki tarix – buyuk murabbiy. U insonga ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, ba'zan achchiq saboqlarni ham tan olishga undaydi. Tarixga berilgan xolis baho mafkuraning hayotiyligi va ta'sirchailigiga asos bo'ladi. Bundan necha asrlar avval yaratilib, hozirga qadar yurtimiz ko'rkiga-ko'rk bag'ishlab kelayotgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'alaridan dalolat bo'libgina qolmokda. Ular Vatanimizning shonli tarixi to'grisida yaqqol tasavvur va gushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. “Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat payda bo'ldiki, – deb yozadi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov, – biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tadbiiq etmog'imiz kerak”. Bu vazifa esa tarixiy xotirani tiklash evaziga amalga oshadi. Haqiqatan ham, millatimizning o'ziga xos sharqona turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatini ifoda etuvchi xalq



og‘zaki ijodi namunalari, “Alpomish”, “Shashmaqom” kabi durdona asarlar, asriy ideallarni o‘zida ifoda etgan milliy qahramonlarning ibratli hayoti ham milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardandir. Xalqimizning ertak va masallarida, rivoyat va afsonalarida ezgulik, adolat, tenglik, insoniy mehr-muhabbat tarannum etilgan. Ularda Vatanning muqaddasligi, insonning azizligi, ilmning qadrliligi targ‘ib etilgan. “Alpomish”da inson sha’ni, yigitlik oriyati himoya qilinsa, “Shashmaqom”da xalqning asriy orzu-umidlari yuksak badiiy did bilan kuyga solingan. Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning Vatan taqdiri uchun olib borgan qahramonona kurashlari, ona-Vatan ozodligi yo‘lida ko‘rsatgan jasoratlari har birimizda cheksiz faxr va g‘urur hissini uyg‘otadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, milliy mafkuramizning tarixiy ildizlari deganda ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li, tafakkur tarzi, amaliy faoliyati, bunyodkorlik ishlari, eng yaxshi urf-odatlar, an‘analari, qadriyatlar, mustahkam iymon-e‘tiqodi fuqarolarimiz uchun namuna bo‘lishi, xato, nuqsonlardan esa to‘g‘ri xulosa va saboqdar chiqarish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2010. –173 b.
2. Milliy istiklol go‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., O‘zbekiston, 2000.–171 b.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Istiqlol\\_mafkuras\\_i](https://uz.wikipedia.org/wiki/Istiqlol_mafkuras_i)



## TEMURIYLAR DAVRIDA TIL VA ADABIYOT MASALALARI

*Soliyeva Kamola Abdumalikovna*  
*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani*  
*14-son maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*  
*+998906144380*  
*soliyeva@gmail.com*

**Annotatsiya:** ushbu maqola temuriylar davrining ilm -fanga qo'shgan beminnat hissalarini, umumturk adabiyoti tarixini davrlashtirishga masalalari, temuriy zodalar homiyligida tibbiyot, jug'rofiya, handasa, o'simlikshunoslik singari fan sohalarida ham ilmiy izlanishlar rivoj topganligi haqidagi fikr- mulohazalar.

**Kalit so'z:** fiqh, davrlashtirish, umumturk, ijtimoiy taziq.

Tarixni o'rganish kelajani qurish demakdir. Adabiyot tarixini o'rganish esa, buyuk asarlar mazmunini ko'lamini, boy asriy an'analarni, undagi urf-odatlar, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarni o'rganish, dunyoqarashni shakllantirish, o'tmishdagi buyuk ajdodlar bilan faxrlanish va ibrat olishga undaydi. Barchamizga ma'lumki, adabiyot tarixi ma'naviy meros va milliy qadriyatlar majmuasi bo'lgani uchun ham ajdodlarimizning barhayot so'zlari nafaqat o'tmish adabiyotini o'rganish va tushunishda, balki bugungi adabiy an'analarning mohiyatini anglashda, ildiz va manbalarini aniqlashda ham benazirdir. Tabiiyki, bugungi adabiyotning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan adabiy meros buyuk qadriyat kelajakka ham asqotishi, buyuk davlatchilikning ulkan ma'naviy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Hujjatlardan anglashilgan tarix qariyb uch ming yillikni o'z ichiga olgan ekan, adabiyot tarixi undan ham qadimiyroq ekani o'z-o'zidan anglashiladi. Cho'lponning ma'nolarga limmolim bir so'zi bor: "Adabiyot yashasa millat- yashaydi". Darhaqiqat, adabiyot hayot ekan undagi adab, ma'naviy va axloqiy tarbiya rivoj topadi. Ana shu muhtasham tarixning har bir davrida yaratilgan an'ana va o'ziga xosliklarini tushunish uchun adabiyotimiz tarixini davrlashtirish muammolariga e'tibor qaratish lozim. O'zbek adabiyoti tarixini, shuningdek, umumturk adabiyoti tarixini davrlashtirishga intilish XX asrning boshlaridan boshlangan. 20-yillarda tarixchi olim Bo'lot Soliyev, adabiyotshunos Fitrat va Otajon Hoshim tomonidan ilgari surilgan davrlashtirishga oid mulohazalar bor:

1. Qabilaviy adabiyot namunalari (qadimgi davrlardan VI asrgacha)
2. Feodallik davri adabiyoti (VII asrdan Islomiy adabiyotgacha)
3. Savdo sarmoyasi davri adabiyoti («Qutadg'u bilig»dan «Boburnoma»ga qadar yaratilgan adabiy asarlar)
4. O'zbekxonlar va uch xonlik davri adabiyoti (XVI - XIX asrlar adabiyoti)
5. Jadid adabiyoti (XX asr boshlari)

Bu fikrlar Fitratning 1928- yilda yozgan «O'zbek adabiyoti namunalari» asarida o'z aksini topgan. Ushbu tasnif garchi formatsiyalar bo'yicha tarixiy davrlashtirish tamoyillarini o'zida aks ettirgan bo'lsa ham, asosan, adabiy asarlarga tayangan holda ish ko'rgani bilan e'tiborga molikdir. Davrlashtirish masalalariga sho'rolar davrida bir necha marta murojaat qilingan bo'lsa-da, ma'lumki, bunday davrlashtirish tamoyillari asosan, ijtimoiy tazyiq ostida kechgan edi. Istiqloq davriga kelib, ushbu masalaga qayta yondoshilganda olimlar tomonidan quyidagicha davrlashtirishni tavsiya etgan:

1. Islomga qadar turk adabiyoti (qadimgi davrlardan VI asrgacha)
2. Ilk turk-islom davrlari adabiyoti (IX-XI asrlar)
3. Chingizxon istilosi davri adabiyoti (XIII-XIV asrning 1 yarmi)
4. Temuriylar davri adabiyoti (XIV asrning 1- yarmi XVII asr)
5. O'zbekxonlar va uch xonlik adabiyoti (XVIII -XIX asrning 1 yarmi)
6. Rossiya istilosi davri adabiyoti (XIX asrning 1 yarmi XX asr boshlari)
7. Sho'rolar davri adabiyoti (1017-1991 yillar)
8. Istiqloq davri adabiyoti (1991 yildan keyin)

XIV asrning 1- yarmidan XVII asrgacha o'zbek adabiyotida temuriylar hukmronligi davri bo'lib, bu davr o'zbek adabiyoti va madaniyatining gullab yashnagan davri ham bo'lib, turkiy til yuksak qadr va e'tibor topdi. Bu davrda Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Hofiz Abro'ning "Zubdat ut- tavorix" ("Tarixlar qaymog'i"), Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla us-



sadayn...” (“Ikki baxt boshlanmasi”), Mirxondning “Ravzat us- safo” (“Soflik bog‘i”) kabi asarlari Temuriyzodalar va temuriylar tarixiga bag‘ishlanadi. Buyuk sulola davrida lug‘atshunoslikka oid asarlar ham yaratildi. Shulardan biri sifatida “Abushqa” lug‘atini olishimiz mumkin. Bu lug‘at usmonli turklar tilida tuzilgan bo‘lib, unda Navoiy va boshqa o‘zbek shoirlari asarlaridan misol tariqasida parchalar olingan. Temuriylar davrida ilgari o‘rinlarda turk tili undan keyin esa arab va fors tili o‘rin egallagan. Sulola davrida ijod qilganlar aksariyati turkiy tilda qalam tebratganlar. Temuriylar davri adabiyotida yaratilgan asarlar hozirgi kunda mumtoz adabiyot manbalarini katta qismni tashkil etadi. Bu davrda yartilgan asarlar ma‘no mazmuni asosan vatanparvalikka, yurt mehri bilan yashashga, davlat siyosatini qanday yuritishga shu bilan birga milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan Tarixchilarning yozishicha, temuriylar davrida boshqa fan doiralarida ham ish qilingan va bir guruh olimlar Boysunqur Mirzo homiyligida tibbiyot, jug‘rofiya, handasa, o‘simlikshunoslik singari fan sohaslarida ham ilmiy izlanishlar olib borilgan. Eng muhimi, Boysunqur Mirzo Hirotda katta kutubxona tashkil qilgan. Temuriy Boysunqur Mirzoning kutubxonasida boshlangan ishlar shoh Husayn Boyqaro va Amir kabir Alisher Navoiy davrida yanada kengroq miqyosida davom ettirilgan. Jumladan, uning boshchiligida Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asari mukammal matni tiklangan. Boysunqurning o‘zi so‘zboshi yozgan bezakli va suratlarga boy bu nusxa hozirgi paytda Tehron muzeyida saqlanadi. Bu asarning matn holiga kelishi bugungi kunda yosh avlod uchun katta ahamiyatga ega. Bu asarni o‘qigan o‘quvchi to‘rt sulola haqida birma-bir ma‘lumotga ega bo‘ladi. Temuriylar davrida yaratilgan bu kabi qimmatli ishlar tarixning oltin sahifalaridan darak beradi. Asarning bosh g‘oyasi- vatanni ulug‘lash, xalq qudrati va salohiyatini ko‘z – ko‘z qilish, elning yetuk farzandlari, qadrini ko‘tarish, shu tariqa o‘quvchiga kuchli vatanparvarlik hissini singdirishdir. Temuriylar davrida yaratilgan ijobiy ishlar ko‘p sonni tashkil etadi. Misol qilib, Samarqandda, ayniqsa, Hirotda kitob va miniatyura san‘ati taraqqiy qildi. Sultonali Mashhadiy, Abduljamil kotib, Darveshmuhammad Samarqandiy kabi xattotlar yetishdilar. Navoiy davrida xat yozish san‘atining 36 turi qayd etilgan. Miniatyura sohasida Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Qosim Ali, Shoh Muzaffarlar dovruq qozondi. Temuriyzodalar davrida buyuk asarlar bilan birga yoshlar ongini va manaviyatini rivojlantirish maqsadida Alisher Navoiy Ixlosiya, Nizomiya, Xusraviya madrasalar, xalqning ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun Xalosiya Shifoia, Fanoia kabi xonaqohlar, o‘nlab masjidlar, shuningdek, 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko‘prik va 9 ta hammom qurdirgan. Bu davrda har bir shaxs badiiy ijod bilan shug‘ullangan. Bu haqida ma‘lumotlar Husayn Boyqaroning 1485- yilda bitgan, “Risola” sida birgina Hirotda va uning atrofida mingga yaqin kishi she‘r bilan mashg‘ul ekanligi tilga olingan. Turkiy tilni yanada ommalashtirish maqsadida Husayn Boyqaro turkiy tilda asarlar yozish haqida maxsus farmon chiqargan. Bunday farmon bir vaqtlar – 1277- yilda elxonlar davrida ham chiqqan edi. Umuman, bu davrda nazm bilan birgalikda nasr ham rivojlangan, temuriylar sulolasining eng ko‘zga tashlangan ahamiyatli ishi turkiy tilni yuksak cho‘qqiga ko‘tarilganligidadir. Temuriylar sulolasi xon va beklarining aksariyati she‘rga, musiqaga, ilm- fan va me‘morchilikka havasmand edi. Chunonchi, Husayn Boyqaro, Zahridin Muhammad Bobur, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II devon tuzgan shoirlar edi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bu sulola vakillari nafaqat ilm fan bilan qolaversa, bunyodkorlik ishlariga ham qo‘l urganlar va omma uchun qulay imkoniyatlar yaratgan. Tashkil etgan kutubxonada Qur‘oni karim, hadis va tavsirlar, fiqh, falakkiyot, tibbiyot, ilmi nujum, jo‘ro‘fiya, falsafa, tarix, mantiq, adabiyot va tilshunoslikka oid ko‘plab kitoblar bo‘lgan. Ayni paytda diplomatik aloqalar va turli rasmiy yozishma, xatlarning nusxalari saqlangan. Bu kutubxonaning tasirida ilm ahli yanada rivojlanib borgan.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbek adabiyoti tarixi “O‘qituvchi” nashriyoti T.: - 1975
2. Rahmonqul Orzubekov O‘zbek adabiyoti tarixi T.: - 2006
3. Iqboloy Adizova Mumtoz adabiyot tarixi T.: 2007



## КЛАССИФИКАЦИЯ ПРАВ МОЛОДЕЖИ В ЮРИДИЧЕСКОЙ НАУКЕ

*Матчанова М.А*  
*Докторант 3 курса*  
*Университета мировой экономики и дипломатии*  
*matchanova-mira@yandex.ru 99-9970904*

**Аннотация:** в статье рассматриваются права молодежи - как отдельная категория прав человека, а также классификация прав молодежи.

**Ключевые слова:** молодежь, права молодежи, правовая доктрина, правовой статус молодежи.

Права молодежи – это, бесспорно, часть всего огромного комплекса прав человека, призванных быть охраняемыми со стороны государства. Законом №ЗРУ-406 14.09.2016 «О государственной молодежной политике» предусмотрено, что каждому молодому гражданину гарантируются права и свободы в соответствии с Конституцией Республики Узбекистан и законом. Права и свободы молодых граждан не могут быть ограничены, за исключением случаев, установленных законом.

В правовой доктрине права человека обычно делятся на личные, политические, социально-экономические и культурные, однако, в значительной степени такое деление символично, поскольку данные права тесно связаны и переплетаются друг с другом.

Личные гражданские права призваны обеспечивать свободу и автономию индивида как члена гражданского общества, его юридическую защищенность от незаконного внешнего вмешательства. Главное их назначение в том, чтобы обеспечить приоритет индивидуальных внутренних ориентиров развития каждой личности. К личным правам относят – право на жизнь, на свободу и личную неприкосновенность, неприкосновенность частной жизни, жилища, свободу передвижения и выбора места жительства, свободу совести, свободу выбора национальности и языка общения. Это фундаментальные аспекты свободы личности<sup>1</sup>.

Неотъемлемым атрибутом цивилизованного общества выступают так называемые политические права. Они подразделяются на: 1) правомочия по участию в организации и деятельности государства и его органов посредством различных форм представительной и непосредственной демократии (избирательные права, права петиций); 2) правомочия по активному участию в жизни общества (свобода слова и печати, свобода собраний и манифестаций, право на объединение). Эти права направлены на проявление человека активным участником политического процесса.

Важным правом является право непосредственного участия в управлении делами государства. Оно осуществляется путем волеизъявления на выборах, референдумах, а также при личном участии в работе органов законодательной, исполнительной и судебной власти. Конкретными формами такого права являются: право избирать и быть избранным, право участвовать в референдуме, право на равный доступ к государственной службе.

Государство должно обеспечивать участие молодежи в процессе принятия государственно-значимых решений на всех уровнях внутри государства и на международном (региональном) уровне.

Социально-экономические права нормативно закрепляют и поддерживают положение человека в сфере труда и быта, занятости, создают основу для социальной защиты. Здесь допустимы рекомендательные нестрогие формулировки (например, достойная жизнь, справедливые условия труда, удовлетворительное существование). К ним можно отнести право на труд, собственность, на занятие предпринимательской деятельностью, право на забастовки и проч. Социальные права обеспечивают человеку достойный уровень жизни.

Молодежь, особенно те категории, которые не заняты на оплачиваемой работе, например, матери-одиночки, должны быть обеспечены поддержкой со стороны государства для того, чтобы не было условий проживания их в бедности. В то же время государство долж-

<sup>1</sup> Певцова Е.А. Права детей и молодежи в российском и зарубежном законодательстве: сравнительно-правовой подход: Монография. М.: Международный юридический институт, 2015. С. 13.



но устанавливать такие стандарты, по которым молодежь получали бы за свой труд такое вознаграждение, которое обеспечило бы им достойное проживание. При этом оплата за равный труд у взрослого населения и молодежи должна быть одинаковой без дискриминации по возрастному признаку. Также государство должно обеспечить возможность молодежи участвовать в профсоюзах.

К категории культурных прав относят право на образование, участия в культурной жизни и связанная с ним свобода литературного, художественного, научного творчества.

Образование должно быть доступно каждому как в финансовом плане, так и в плане обеспечения равного доступа. Обучение правам человека также должно быть инкорпорировано в образование всех уровней для того, чтобы каждый молодой человек знал, умел толковать и защитить свои права и свободы. Молодежь может стать позитивной силой для развития, если ей будут предоставлены знания и возможности, необходимые для ее процветания. В частности, молодые люди должны получать образование и навыки, необходимые для того, чтобы вносить свой вклад в развитие производительной экономики; и им нужен доступ к рынку труда, который мог бы принять их в ряды рабочей силы.

Для прав молодежи характерна такая особенность, как динамичность. Это выражается в том, что правовой статус молодежи не остается длительное время неизменным, в отличие от общего правового статуса личности. Его изменение происходит по мере взросления молодых людей, в связи с поступлением в учебное заведение, трудоустройством, бракосочетанием и т.д.

Для правового статуса молодежи характерно преобладание права и свобод над обязанностями, что обусловлено ее особенностями (отсутствие экономической самостоятельности, слабая социализация, наличие проблемы самоопределения). Государство путем расширения круга прав и свобод молодежи способствует более полному включению молодежи в социально-экономическую, политическую и культурную жизнь общества, расширяет возможности в выборе своего жизненного пути, достижении успеха.

В то же время, законодательно устанавливается неполная (частичная) дееспособность несовершеннолетних, в силу их психологической и физиологической незрелости, недостаточного жизненного опыта, не всегда адекватной оценки, как собственных поступков, так и поступков других лиц, подверженностью влиянию со стороны других лиц, незнания социальных (в том числе и правовых) установлений.

Так, согласно ст. 22 Гражданского кодекса<sup>1</sup>, способность гражданина своими действиями приобретать и осуществлять гражданские права, создавать для себя гражданские обязанности и исполнять их (дееспособность) возникает в полном объеме с наступлением совершеннолетия, то есть по достижении восемнадцатилетнего возраста. Гражданин, на законном основании вступивший в брак до достижения совершеннолетия, приобретает дееспособность в полном объеме со времени вступления в брак. Статьей 29 ГК предусмотрено, что за несовершеннолетних, не достигших четырнадцати лет (малолетних), сделки, за исключением указанных в части второй данной статьи, могут совершать от их имени только их родители, усыновители или опекуны.

Активное избирательное право (право избирать) также возникает с 18-летнего возраста (ст. 4 Избирательного кодекса Республики Узбекистана<sup>2</sup>).

Подводя итог, необходимо отметить, что права молодежи являются неотъемлемой составной частью единой системы защиты прав и свобод человека. Полное и равное участие

<sup>1</sup> Гражданский кодекс Республики Узбекистан // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1996 г., приложение к № 2; 1997 г., № 2, ст. 56; 1998 г., № 5-6, ст. 102, № 1, ст. 20, № 9, ст. 229; 2001 г., № 1-2, ст. 23; 2003 г., № 5, ст. 67; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2004 г., № 25, ст. 287, № 37, ст. 408; 2006 г., № 14, ст. 110, № 39, ст. 385; 2007 г., № 1-2, ст. 3, № 3, ст. 21, № 14, ст. 132, № 15, ст. 154, № 50-51, ст. 506; 2008 г., № 52, ст. 513; 2009 г., № 39, ст. 423; 2010 г., № 37, ст. 315, № 38, ст. 328; 2011 г., № 51, ст. 542; 2014 г., № 20, ст. 222, № 50, ст. 588; 2015 г., № 33, ст. 439; 2016 г., № 17, ст. 173; 2017 г., № 37, ст. 978; Национальная база данных законодательства, 30.12.2017 г., № 03/18/455/0492, 10.01.2018 г., № 03/18/459/0536, 19.04.2018 г., № 03/18/476/1087; 05.03.2019 г., № 03/19/526/2701, 21.03.2019 г., № 03/19/531/2799, 24.05.2019 г., № 03/19/542/317, 23.10.2019 г., № 03/19/572/3943, 04.12.2019 г., № 03/19/586/4106, 12.12.2019 г., № 03/19/592/4144; 15.01.2020 г., № 03/20/602/0052; 23.01.2020 г., № 03/20/603/0071.

<sup>2</sup> Избирательный кодекс Республики Узбекистан // Национальная база данных законодательства, 26.06.2019 г., № 03/19/544/333.



молодежи в политической, общественной, социально-экономической, культурной жизни на международном, региональном и национальном уровнях, а также признание определенной группы населения «молодежью» являются одной из важных целей международного сообщества. Для признания и обеспечения прав и свобод молодежи существенное значение имеет гарантированное осуществление прав и основных свобод человека и гражданина, включая права женщин и детей<sup>1</sup>.

Список литературы:

1. Певцова Е.А. Права детей и молодежи в российском и зарубежном законодательстве: сравнительно-правовой подход: Монография. М.: Международный юридический институт, 2015. С. 13.
2. Гражданский кодекс Республики Узбекистан // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1996 г., приложение к № 2; 1997 г., № 2, ст. 56; 1998 г
3. Избирательный кодекс Республики Узбекистан // Национальная база данных законодательства, 26.06.2019 г., № 03/19/544/333.
4. Гаранина И.Г. Международно-правовые нормы по защите прав молодежи и их имплементация в Российской Федерации: Дис. ... канд. юрид. наук. М., 2005. С. 15.

---

<sup>1</sup> Гаранина И.Г. Международно-правовые нормы по защите прав молодежи и их имплементация в Российской Федерации: Дис. ... канд. юрид. наук. М., 2005. С. 15.



**TADQIQOT.UZ**  
**ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"**  
**МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 18-КЎП ТАРМОҚЛИ**  
**ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ**  
**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(1-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.07.2020

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000